Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

"KO'L BO'YIDA" HIKOYASIDA XALQ OG'ZAKI IJODIYOTI VOSITASIDA AYOL RUHIYATI TASVIRI

Hurmatoy Axmatullayevna Sheraliyeva*
FarDU mustaqil izlanuvchisi
✉ sheraliyevahurmatoy373@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada badiiy adabiyotning muhim psixologik kategoriyasi hisoblangan ayol ruhiyati tasviri tahlil qilinadi. Alisher Ibodinovning "Ko'l bo'yida" hikoyasida xalq og'zaki ijodi vositasida ayol ruhiyati fenomenining badiiy talqini o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida ayol xarakteri, uning qalb iztiroblari, ichki ruhiy izlanishlari, mehr va mas'uliyat masalalari, oilaviy an'analar, vijdon azobi va ruhiy poklanish yo'lidagi ichki konfliktlar hayotning ajralmas qismi sifatida tasvirlanadi.

Kalit so'zlar

folklor, ruhiyat, xarakter, portret, ichki monolog, ruhiy kechinma, ayol iztirobi, detal.

DOI: 10.5281/zenodo.21743827

KIRISH

Xalq tomonidan yaratilgan har qanday ijod mahsuli xalq og'zaki ijodi sanalanadi. "Folklor" so'zi tor ma'noda faqat xalq og'zaki poetik ijodi, ya'ni xalq tomonidan yaratilgan og'zaki badiiy so'z san'atini ifodalaydi. Badiiy adabiyot kabi uning tasvir vositasi ham so'zdir. Xalq tomonidan yaratilgan har qanday asarda hayot va undagi voqea-hodisalar ma'lum bir estetik prinsiplarga asoslangan holda tasvirlanadi. Xalq og'zaki ijodida obraz va obrazlilik umumiyligi mavjud bo'lib, u nasriy asarlar tiarkibida ta'limiy, tarbiyaviy, estetik vazifa bajarishga qaratiladi.

Taniqli adib Alisher Ibodinovning "Ko'l bo'yida" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri, qahramonlar xarakter xususiyatlari xalq og'zaki ijodiyoti vositasida ochib beriladi. Toshkentda tahsil olayotgan talabalardan iborat folklor ekspiditsiyasi qishloqlarga borib, yo'qolib borayotgan eski qo'shiq va ertaklar, xalq og'zaki ijodining qadimiy namunalarini to'playdilar. Shu maqsadda Gulnora va Aziza ismli qizlar ko'l bo'yida yashovchi O'tar bobo xonadonida mehmon bo'ladilar. **"**Eski darvozaning g'ijirlashi ayvondagi so'rida kitob o'qib yotgan yigitning diqqatini bo'ldi",- hikoya ekspozitsiyasi aynan eski darvozaning g'ijirlashi hamda kitob o'qiyotgan yigitning holati tasviri bilan boshlanadi. Eski darvoza va kitobga bo'lgan munosabat orqali yozuvchi ifodalamoqchi bo'lgan g'oya ochila boshlaydi. Badiiy asar, uni ifodalovchi til kuchli emotsional ta'sir kuchiga ega. Muallif nutqi emotsionalligi ba'zan personajlar nutqi bilan aralash holatda keladi. "Ko'l bo'yida" hikoyasining dastlabki sahifasidanoq muallif nutqi personajlar nutqi bilan qorishib o'zlarini namoyon etadi. O'tar bobo va uning oilasi kitobxonda ajib taassurot qoldiradi. Boboning kampiri nabirasi tilidan shunday ta'riflanadi: "-Shoshmay turing,-dedi yigit, - anavi dovon orqasida, ko'l bo'yida enam yashaydilar. U kishi eski termayu afsonaning koni. Hohlasangiz – o'sha yoqqa olib chiqaman..." Nabira tilidan buvisining "eski terma-yu afsonaning koni" deya ta'riflanishi hikoya tuguninig boshlanishidir. O'quvchida bu xonadonda kitobxon bolalarning asl tarbiyachisi bo'lgan buviga nisbatan qiziqish uyg'onadi.

Alisher Ibodinov yozuvchi sifatida portret san'atidan qahramonlarning ichki olamini yoritishda unumli foydalanadi. Yozuvchi asar qahramonlari tashqi qiyofasiga xos chizgilarni ayrim o'rinlarda birdaniga tasvir-

lasa, ba’zan hikoya davomida g‘oyatda qisqa-qisqa tasvirlar orqali portretni bo‘laklarga bo‘lib ta’riflaydi. Bu usulning ham o‘z afzalliklari bor. Chunki bir o‘rindayoq tugal tasvirlangan portret personajlarning ichki hayoti mukammal ifodasini topmasligi mumkin. Yozuvchi portret yaratishda qahramonning ichki olamini birinchi planga qo‘yadi. U dastlab qahramonlardagi ruhiy tovlanishlarni izlaydi va buning tashqi qiyofadagi aksini kitobxonga yetkazadi.

“Bobosi yoshligida Qo‘qon madrasalaridan birida o‘qigan, Yassaviyga ixlos qo‘yib, o‘zi ham g‘azallar bitgan ekan. Ko‘p yillar ilgari mulla dunyodan etak siltaydi-da, xotinini olib, toqqa, kimsasiz ko‘l bo‘yiga ko‘chib chiqadi. Eru xotin shu yerda boshpana quradi, xurjunda tuproq tashib tosh ustida bog‘ qiladi. O‘tar bobo tog‘ bag‘ridan yulib olgan bir parcha eriga bug‘doy ekadi, qishda kaklik tutib sotadi, mol-hol orttiradi. Shu tariqa uzoq yillar tanho umr kechirib kelayotgan ekanlar. Bola-chaqalari ulg‘ayib qishloqqa tushib ketishgan, u erda nevara-chevaralari serob. Amir -kenja nevara. Chol kampir esa hamon ko‘l bo‘yida yashaydi”.

Hikoya qahramoni O‘tar bobo portretiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, madrasa ko‘rgan, adabiyotga ixlosi baland, diniy va dunyoviy ilmga ega shaxs ko‘z oldimizda gavdalanadi. Biroq shunday ilmli insonning odamlardan ajralib, kimsasiz toqqa, ko‘l bo‘yiga kelib qolishlariga nima sabab bo‘ldi? – degan tabiiy savol tug‘iladi. Bu savolga muallif hikoya voqealari rivojida javob beradi.

“-Qiziq... Nega bunday... Robinzonga o‘xshab?-deb so‘radi Gulnora.

-Kim bilsin,-deb elka qisdi yigit. –Bobomiz enamizni rashk qilganidan toqqa olib chiqib ketgan, deb chala-yarim eshitganman. Odamlarning gapi... Enam yoshligida shu qishloqlik bir yigitga ko‘ngil qo‘ygan ekanmi-ye... Xullas, shunaqa gaplar..”

Xalq og‘zaki ijodi inson ruhiyatida bo‘layotgan nozik his-tuyg‘ularni, evrilishlarni, g‘alayonlarni badiiy emottsional tarzda, sodda usulda ifoda etishdir. Bu orqali qahramon qalbini junbushga keltirayotgan tuyg‘ularni anglab olish mumkin.

“Bir ozdan so‘ng ichkaridan kampirning xiyol xirqiroq, zaif va ana shu zaif –hazinligi bilan yurakka allanechuk hasrat soladigan ovozi eshitila boshladi.

Kut desang, Qashqar ketay,
Yo‘llarda yolg‘izlik yomon.
Yolg‘izlikdan kim o‘libdi,
Hammadan xo‘rlik yomon...”

Badiiy asarda har bir janr o‘zining alohida xususiyatlari, mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati bilan ajralib turadi. Hikoyada folklor janrining go‘zal namunasi hisoblangan qo‘shiq orqali ayol, ya’ni kampirning o‘tmish xotiralari, muhabbat va oila, sadoqat va mas’uliyat tushunchalari keng yoritiladi. Qo‘shiqda ma’shuqaning oshig‘iga aytilgan dil rozlari tasvirlanadi. Lirik qahramonning “Agar kutsang, hatto uzoqdagi Qoshg‘arga ham boraman”, deyishi yorning sadoqati va qat’iyatini bildiradi. Biroq uzoq yo‘lda yolg‘iz yurish qiyinligini ta’kidlaydi. So‘nggi ikki misrada esa yanada chuqurroq falsafiy xulosa beriladi. Yolg‘izlik og‘ir bo‘lsa-da, inson uchun eng og‘iri – ho‘rlanish va qadr-qimmatning poymol bo‘lishi ekanligi aytiladi.

Hikoyada folklor namunalarini to‘plovchi qizlar kampirning qalb dramatizmini ochib beradi.

“Anov turgan olmamikin, normikan, normikan,
Soyasida yotgan bizning yormikan-ey, yormikan?
Soyasinda yotgan bizning yor bo‘lsa, yor bo‘lsa,
Ikkimizni qo‘shar kunlar bormikan-ey, bormikan?”

....kampir ro‘moli elkasiga sirg‘alib tushganini hamsezmasdan, ko‘zlari yumilib kuylardi. (Asar 493-bet)

Xalq qo‘shiqlarida tabiat hodisalari va ayrim detallar (olma mevasi) orqali insoniy tuyg‘ularni yashirin, parallel ifodalash yetakchilik qiladi. Bu qo‘shiq orqali lirik qahramonning visol umidi va intizorlik kayfiyati, uzoqdagi yor va unga yetish sirlari haqidagi o‘ylari ifodalanadi. Oxirgi misrada “Ikkimizni qo‘shar kunlar bormikan-ey, bormikan?”- degan nido qo‘shiqning kulminatsion nuqtasi bo‘lib, unda sharqona hayo, sof muhabbat va suyukli yorga intilish tuyg‘usi ifodalangan. Muallif nutqi orqali esa: “...kampir ro‘moli elkasiga sirg‘alib tushganini ham sezmasdan, ko‘zlari yumilib kuylardi” personajning ichki dunyosi hatto so‘z bilan ham ta’riflab bo‘lmaydigan ruhiy holati tasvirlanadi.

“... Marg‘ilonning yo‘lida
Yakka terak o‘sibdi.
Yorim kelar yo‘llarni
Tikan o‘tlar to‘sibdi...

Kampir shunchaki xirgoyi qilayotgandek **past ovoz** bilan boshlar, so‘ng avjiga chiqar, shu payt **zaif, titroq tovush** benihoya **hazinlashar**, qo‘shiq ohangidan teran **bir mung** to‘kilar edi...”

Samarqand soyiga solma imorat-a, solma imorat,
O‘z yurtingga qilma xiyonat-o, qilma hiyonat.
O‘z yurtingga qilsang hiyonat-o, qilsang hiyonat,
O‘zganing yurti ham senga omonat-o, senga omonat... (Asar 499-bet) Qo‘shiqda oshiqning yori kelar yo‘llari to‘silganligi, yakka terak obrazi orqali o‘zining yolg‘izligi va umidsizligiga ishora qilinadi. Ayolning qalbidagi ichki og‘riqlar va mungli xotiralar gavdalanadi. **“Past ovoz”, “zaif, titroq tovush”, “benihoya hazinlashar”, “teran bir mung”** kabi birikmalar asardagi lirik personajning ruhiy holatini va ijroning ta’sirchangigini oshirishga xizmat qilgan.

Keyingi to‘rtlikda agar uy qurmoqchi bo‘lsang, soy bo‘yiga qurma, ya’ni Samarqand soyiga solma, ya’ni birovga o‘ylamay ko‘ngil berma, o‘z yurtingga hiyonat qilma, yurt bu o‘rinda ko‘ngil, ichki his-tuyg‘ular, muhabbat ramzi sifatida qo‘llanadi. Keyingi misrada bu yanada kuchayadi. O‘z yurtingga qilsang hiyonat, ya’ni o‘z muhabbatingga qilsang hiyonat, O‘zganing yurti, ya’ni qalbi ham senga omonat, deyiladi.

XULOSA

Hikoyada folklor namunalari asar qurilishida muhim o‘ringa ega bo‘lib, u muallif bayoni bilan uzviy bog‘liqlikda rivojlanadi. Qo‘shiq asar strukturasining o‘ziga xos tashqi shaklini saqlagan holda, qahramon ichki olami qamrovi, o‘y-fikrlarining individualligini, xarakter xususiyatlarining ma’lum qirralarini to‘la ifodalab asar mazmunini kuchaytiradi. I.G‘ofurovning yozishicha, “Alisher Ibodinovning badiiy nutq uslubida milliy adabiyot an’analariga tayanayotgani, natijada uning tili klassik uslubiy an’analar sari baquvvat ildiz otayotganligi, uning barcha hikoyalarida tilning strukturasi badiiy voqelik strukturasiga tugal monand ekanligi bilan e’tiborlidir”. “Ko‘l bo‘yida” hikoyasi milliy an’analarimiz va o‘lmas qadriyatlarimiz ulug‘langanligi, ayol va uning ruhiy olami, qadr-qimmati, sevgi va sadoqati xalq og‘zaki ijodi vositalari orqali yuksak pafos bilan talqin etilganligi bois bugungi kunda ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Solijonov Y. Farg’ona adabiyoti bugun va ertaga. – Farg’ona nashr, 2026.
2. Jo‘rayeva M.Zamonaviy o’zbek nasrida inson konsepsiyasi. Monografiya. Toshkent: “Mumtoz so’z” nashr, 2023.
3. Ahmadjonova O. Badiiy asar personajlari ruhiy va jismoniy holatlari tasvirining o‘zaro uyg‘unlashuvi. – Farg‘ona (PhD diss.), 2023.
4. Ibodinov A. Tanlangan asarlar – Toshkent: Adabiyot, 2024.